7 2022

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY



ILMIY-NAZARIY JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL

АНИҚ ФАНЛАР
ТАБИИЙ ФАНЛАР
ФАЛСАФА
ПЕДАГОГИКА
ПСИХОЛОГИЯ
ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР
ФАНЛАР

sababli bu darslarda o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatishga alohida e’tiborni qaratmoq lozim.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar // Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti: www.tdi.uz.

4. PIRLS 2016 Teacher Questionnaire. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2015.

KLASTER METODINING NAZARIY-METODOLOGIK QOIDALARI

Sirojiddinova I.M. - Andijon mashinasozlik instituti “Gumanitar fanlar”kafedrasi dosenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada klaster metodining nazariy-metodologik qoidalari, O‘quv jarayonini optimizasiyasiga erishish uchun klaster metodining roli, pedagogik loyixalash mazmuni, klaster metodini amalga oshirishni imkonini beradigan dolzarb masalalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: trayektoriya, ta’lim jarayoni, kvalimetrik yondashuv, kasbiy, umumiy kasbiy tushunchalar, iqtidorlarni shakllantirish.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРАВИЛА КЛАСТЕРНОГО МЕТОДА

Сирожиддинова И.М. - доцент кафедры «Гуманитарные науки» Андижанского машиностроительного института

Аннотация. В данной статье говорится о теоретико-методологических правилах кластерного метода, роли кластерного метода в целях оптимизации

образовательного процесса, содержании педагогического планирования, а также актуальных проблемах, позволяющих реализовать кластерный метод.

Ключевые слова: траектория, образовательный процесс, качественный подход, профессионал, общепрофессиональные понятия, формирование таланта.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL RULES OF THE CLUSTER METHOD

Sirojiddinova I.M. - Docent of the "Humanities" department of the Andijan Mechanical Engineering Institute

Annotation. This article describes the theoretical and methodological rules of the cluster method, the role of the cluster method in order to optimize the educational process, the content of pedagogical planning, and current issues that enable the implementation of the cluster method.

Keywords: trajectory, educational process, qualitative approach, professional, general professional concepts, talent formation.

Mamlakatimiz ta’limi rivojlanishining zamonaviy an’analari uzluksiz kasbiy ta’limning boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim turlarini olgan ko‘p pog‘onali tizimini yaratish zarurligi bilan chambarchas bog‘liq.

Pedagogikada «klaster (cluster)» - «tarmoqlar metodi texnologiyasi» deb ham ataladi va bu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan, biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishdan oldin o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladigan usul ma’nosida qo‘llaniladi. [1].

Ta’lim jarayonining natijasi bo‘lajak muxandislar kasbiy kompetentligining kafolatlangan darajasi ta’minlanishi zarur va bunga bir qator pedagogik obyektlarni ishlab chiqish bo‘yicha loyihalashtirish asosida erishiladi:

1) o‘quv dasturini,
2) mutaxassisning kasbiy shakllanishi trayektoriyasini,
3) o‘qitishning metodik tizimini.

Qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishga erishish imkonini berish bilan pedagogik obyektlarni loyihalashtirish o‘quv jarayoniga texnologik harakter beradi. Bunda, davlat ta’lim standartiga to‘la mos kelishi zarur bo‘lgan va mas’ul qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassisni tayyorlash imkonini berishi zarur bo‘lgan o‘quv dasturiga alohida e’tibor beriladi.

Ushbu maqsadga erishish mutaxassisning kasbiy shakllanishi trayektoriyasini shakllantiradigan loyihalashtirish faoliyatining ishchi maydoni yordamida amalga oshiriladi. Biz o‘quv dasturini va ta’lim trayektoriyasini loyihalashtirish asosiga o‘zida pedagogik tashxis tajribasini, zamonaviy ped texnologiya va nazariy pedagogika metodologiyasiga asoslangan kvalimetrik yondashuvlarni mujassam qilgan klaster metodini qo‘ydik.

O‘quv jarayonini optimizasiyasiga erishish uchun o‘quv dasturini loyihalashtirish va mutaxassisning kasbiy shakllanishi trayektoriyasini qurish yetarli emas. O‘quv jarayonini uni nafaqat samarador, balki tom ma’noda mahsuldor qiladigan didaktik va tashxisiy-kvalimetrik vositalar bilan qurollantirish zarur.

O‘qitishning metodik tizimini yaratish bo‘yicha loyihalashtirish faoliyati pedagogikaga oid va tashxisiy yondashuvlarni o‘zida birlashtiradigan aynan o‘sha metodologik asoslarda noaniq (yaqqol bo‘lmagan holda) asoslanadi. Haqiqatdan ham, didaktik vositalarni tanlab olish, mohiyatan, o‘qitishning barcha mumkin bo‘lgan vositalaridan tanlab olinadigan to‘plamni shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Tashxisiy-kvalimetrik ta’minotni ishlab chiqish, dastavval, kvalimetrik anketalar va didaktik testlarni standartlashtirish texnologiyalariga asoslanadi. Ushbu texnologiyalar deyarli to‘laligicha pedagogik tashxisning ekspert va tanlab olish metodiga asoslanadi.

Demak, klaster metodi quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

1. O‘quv elementlarining mazmuni ahamiyatiga ekspert bahosi berish va strukturaviy elementlarni saralab olishdan iborat o‘quv dasturini loyihalashtirishni.
2. Mutaxassisning o‘z ichiga:

1) O‘quv dasturining strukturaviy elementlari va uni matrisa ko‘rinishida taqdim etish orasida o‘zaro aloqalar darajasiga ekspert bahosi asosida ta’lim makonida loyihalashtirish faoliyatining ishchi maydonini shakllantirishni;

2) mutaxassisning kasbiy shakllanish trayektoriyasini loyihalashtirish faoliyati ishchi maydonining konfigurasiyasini eng kam ta’sir tamoyili va pedagogik ta’sirning eng kichik mumkin bo‘lgan ahamiyatiga erishish nuqtai nazarlaridan tahlil qilishni olgan kasbiy shakllanish trayektoriyasini loyihalashtirish.

3. O‘qitishning quyidagilarni nazarda tutadigan metodik tizimini loyihalashtirish:

1) o‘quv jarayoni uchun didaktik materiallarni tanlab olish;

2) o‘zi ichiga a) mezonlar va ko‘rsatkchilarni ekspert saralab olishi; b) respondentlarga ekspert maqomini berish; v) ekspertlar guruhi fikrlarining konkordasiyasini olgan kvalimetrik anketalarni ishlab chiqish;

3) didaktik testlarni a) strukturaviy elementlarni ekspertlar tomonidan saralab olishni; b) turli qiyinchilik darajalariga ega test vazifalarini tanlab olishni; v)

aprobasiya tekshiruvidan o‘tkazish uchun tanlab oligan guruhni shakllantirishni talab qiladigan standartizasiyasini.[2].

Klaster metodi asosida pedagogik obyektlarni ishlab chiqish bo‘yicha loyihalashtirish faoliyatini amalga oshirishning prinsipial imkoniyatini nazariy-metodologik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Ishni o‘quv dasturini loyihalashtirishdan boshlaymiz. O‘quv elementlarining mazmuniy ahamiyatini ekspertlar tomonidan baholashning an’anaviy usuli unga foizlarda ifodalanadigan muayyan ahamiyatlilik (vaznlilik) berishga asoslanadi. Bunda, o‘quv dasturining bo‘limlari, mavzulari va savollari qatlamlar sifatida o‘rganiladi. Kombinasiya qilingan ahamiyatlilikni hisoblab chiqarish o‘quv elementlarining ro‘yxatini ahamiyati bo‘yicha joylashtirish va ularning eng ahamiyatlilarini tanlab olish imkonini beradi. Agar o‘quv dasturini ekspert baholashning asosiga klaster metodi qo‘yilsa, unda jalb qilingan mutaxassislar uchun strukturalashtirishning ancha yuqori darajasi va pastroq darajasi orasida o‘zaro aloqadorlik darajasini o‘rnatish lozim bo‘ladi. Masalan, muayyan mavzuning mazmuni va uning tarkibiga kiradigan har bir savol orasidagi o‘zaro aloqani o‘rnatish zarur. Bu klaster tahlili o‘quv dasturining strukturasiga nisbatan yaqinlashuvining birinchi darajasidir. O‘quv dasturining bo‘limlariga mos bo‘lgan klaster xuddi shu tarzda shakllantiriladi – yaqinlashuvning ikkinchi darajasi. Bu holda, o‘zaro aloqa koeffisiyentlari tegishli bo‘limning mazmuni va uning tarkibiga kiruvchi har bir mavzu orasida aniqlanadi.

O‘quv elementlarining ahamiyatliligini ifodalaydigan foiz nisbatlarini osonlik bilan o‘nlik kasrlarga o‘tkazish mumkin va ular tegishli klasterda o‘zaro aloqa koeffisiyentlari rolini o‘ynashi mumkin. Olingan koeffisentlarga matematik ishlov berish o‘quv elementlarining birlashtirilgan ahamiyatini hisoblash bilan bir xil usulda amalga oshiriladi. Natijada, o‘quv dasturining mazmunini (ahamiyatiga ko‘ra) joylashtirish va uning strukturaviy elementlarini aniqlash mumkin.

Mutaxassisning kasbiy shakllanish trayektoriyasini loyihalashtirish taomilini o‘rganishda, ta’lim makonida loyihalashtirish faoliyatining ishchi maydonini shakllantirishda to‘xtab o‘tamiz. Klasterning markazida o‘quv dasturining ixtiyoriy strukturaviy elementiga, uning atrofida esa xuddi shu mavzuning tarkibiga kiradigan va eng yaqin muhitni tashkil qiladigan strukturaviy elementlarga ega bo‘lgan holda ular orasidagi ekspert tarzida o‘rnatilgan o‘zaro aloqalarni hisoblash zarur.

So‘ng, klaster markaziga ushbu mavzuning boshqa strukturaviy elementi joylashtiriladi va o‘zaro aloqalar koeffisiyentlari ekspert metodi yordamida takroran aniqlanadi. Natijada, yaqinlashuvning birinchi darajasida strukturaviy elementlar orasida o‘zaro aloqadorlikning koeffisiyentlar matrisasi shakllantiriladi.

Ushbu taomil yaqinlashuvning ikkinchi darajasida matrisaga o‘quv dasturining tegishli bo‘limlari tarkibiga kiruvchi strukturaviy elementlarni kiritilganda takrorlanadi. Demak, loyihalashtirish faoliyatining ishchi maydonining konfigurasiyasiga aniqlik kiritiladi va strukturaviy elementlar orasida ancha uzoq o‘zaro aloqalarni aniqlaydi.

Yaqinlashuvning uchinchi darajasi ushbu o‘quv dasturining barcha strukturaviy elementlarini klasterning markazlashuvini izchil o‘zgartirish orqali o‘rganishni taqozo etadi. Natijada, katta matrisa hosil bo‘ladi va uning ma’lumotlarini qayta ishlash ishchi maydonning konfigurasiyasini batafsilroq tasvirlash imkonini beradi.

Yaqinlashuvning to‘rtinchi darajasi turli o‘quv fanlarining strukturaviy elementlari orasidagi o‘zaro aloqa koeffisiyentlarini ta’lim muassasasining o‘quv rejasini shakllantirish maqsadida aniqlash imkoniyatini nazarda tutadi. Demak, ketma-ket (izchil) yaqinlashuvlar metodi yordamida ta’lim makonidagi loyiha faoliyatining tahsil oluvchilarni mumkin bo‘lgan ehtimoliy ta’lim trayektoriyalarini to‘la belgilaydigan kontiniumining yuqori aniqligiga erishiladi

Ta’lim makonida loyihaviy faoliyatning ishchi maydonini zamonaviy pedagogikaning eng kam ta’lim tamoyili nuqtai nazaridan tahlil qilish mutaxassisning kasbiy shakllanishi trayektoriyasini loyihalashtirishning keyingi bosqichi hisoblanadi.[3]. Ushbu tahlilni klaster metodi asosida amalga oshirish ham mumkin. Ushbu tamoyilga ko‘ra, pedagogik hatti-harakatning o‘lchami imkoni boricha eng kichik qiymatni olishi zarur. Diskretlik tamoyiliga ko‘ra esa, pedagogik amalning minimal o‘lchami kattaligi o‘qitish jarayonining har bir alohida olingan elementar sodda eng kichik nuqtasida erishilishi zarur. Agar ushbu tamoyil atigi bitta strukturaviy elementni o‘zlashtirishda buzilsa, eng kam pedagogik amalga erishishning imkoni bo‘lmaydi.

Klaster metodi asosida o‘qituvchi o‘z o‘quv fani doirasida mutaxassisning kasbiy shakllanish trayektoriyasini qurishi mumkin. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (o‘quv ishlari bo‘yicha boshliq o‘rinbosari) ta’lim trayektoriyasini fan trayektoriyalarining jguti deb qabul qilishi kerak va o‘quv rejasi va dars jadvalini klaster tahliliga muvofiq qurishi zarur.

Zamonaviy pedagogika metodologiyasi va pedagogik tashxislashga asoslangan klaster metodining universal harakterini qayd etish lozim. Ushbu metodni pedagogik obyektlarni loyihalashtirish texnologiyasida qo‘llash bilan, biz mutaxassisning kasbiy kompetentligini davlat ta’limi standartining talabalarini to‘la aks ettiradigan kafotlatlangan darajasini ta’minlaymiz.

Adabiyotlar

1. Qudratbek Shavkat o‘g‘li Maxmudov PEDAGOGIK TA’LIMDA

«KLASTER» "Science and Education" Scientific Journal October 2020 / Volume 1 Issue 7

2. Ермаков М.Е. Выборочный метод в научно-педагогических исследова-ниях и педагогической диагностике. Ростов н/Д., 2004. 88 с.

3. Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий: Моно-графия. М., 2006. 542 с.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA JADIDCHILIK HARAKATINING MILLIY MATBUOTDA YORITILISHI

Mingnorov A.T. – Toshkent davlat pedagogika universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi dosenti

Annotasiya. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning publisistik faoliyati atroflicha yoritib berilgan. Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifatparvarlik faoliyati uning qalamiga mansub maqolalar misolida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada Behbudiy vafotidan so‘ng, u haqda yozilgan maqolalar xususida ham fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Behbudiy, gazeta, matbuot, majlis, Hurriyat, qurultoy, vakil, jadid.

ОСВЕЩЕНИЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРЕССЕ

Мингнаров А.Т. - доцент кафедры истории Узбекистана Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье подробно освещается журналистская деятельность Махмудходжи Бехбуди. На примере написанных им статей раскрывается общественно-политическая и просветительская деятельность Бехбуди. В статье также приводятся мнения о статьях, написанных о Бехбуди после его смерти.

Ключевые слова. Бехбуди, газета, пресса, собрание, хуррият, съезд, представитель, джадид.

COVERAGE OF MAHMUDKHUJA BEHBUDIY AND THE JADID MOVEMENT IN THE NATIONAL PRESS

Mingnorov A.T. - Docent of the Department of "History of Uzbekistan" of Tashkent State Pedagogical University